




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  Open AIRE



+998335668868

<https://innoworld.net>

2026



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLAR MARKAZI
«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 4-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

“KECHA VA KUNDUZ” VA “DER VORLESER” ASARLARIDA PERSUAZIV STRATEGIYALARNING O‘RNI

Z.Yigitaliyeva, FDU dotsent

Turli madaniyat va tillarda yaratilgan badiiy matnlarni qiyosiy o‘rganishda persuziv strategiyalarni klassik ritorikaning uch asosiy komponenti — ethos, pathos va logos nuqtai nazaridan tahlil qilish muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu model asosida Kecha va kunduz va Der Vorleser romanlaridagi ishonitirish mexanizmlarini chuqurroq anglash mumkin.

Ethos, ya’ni nutq egasining ishonchliligi va axloqiy pozitsiyasi orqali ta’sir ko‘rsatish har ikki asarda turlicha namoyon bo‘ladi. Abdulhamid Cho‘lpon romanida ethos ko‘proq kollektiv tajriba va milliy qadriyatlarga tayanadi. Maqollar, aforizmlar, an’anaviy nutq formulalari orqali muallif o‘z fikrini “xalq donishmandligi” bilan mustahkamlaydi. Bu esa o‘quvchida ishonch uyg‘otishning madaniy asoslangan shaklini yuzaga keltiradi. Aksincha, Bernhard Schlink asarida ethos individual tajriba va ichki halollik orqali shakllanadi. Qahramonning o‘z-o‘zini tahlil qilishi, o‘z aybini tan olishga intilishi uning nutqini ishonchli qiladi. Shu bois Schlinkda ethos tashqi autoritetdan emas, balki ichki refleksiyaning kelib chiqadi.

Pathos, ya’ni hissiy ta’sir vositalari har ikki asarda faol qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ularning tabiati farqlanadi. Cho‘lpon asarida pathos ko‘proq ochiq emotsional vositalar orqali yuzaga keladi: undov gaplar, erkalash birliklari, tahdid, qarg‘ish, ovoz va intonatsiya orqali bevosita hissiy bosim yaratiladi. Bu o‘quvchini tezkor reaksiyaga undaydi. Schlinkda esa pathos ichki kechinmalar, sukut, aybdorlik hissi va psixologik iztiroblar orqali beriladi. Ritorik savollar zanjiri (“War es ihr um mich zu tun? Oder um sich?”) o‘quvchini qahramon bilan birga his qilishga majbur qiladi. Bu yerda hissiy ta’sir tashqi ekspressiya orqali emas, balki ichki identifikatsiya orqali amalga oshadi.

Logos, ya’ni mantiqiy asoslash ham ikki asarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Cho‘lpon romanida logos ko‘pincha maqollar, umumlashmalar va sabab-oqibat munosabatlari orqali beriladi. Bunday vositalar o‘quvchini tayyor xulosaga olib keladi va fikrni shubhasiz haqiqat sifatida qabul qilishga undaydi. Schlinkda esa logos savol-javob, ichki mulohaza va moral dilemmalar orqali shakllanadi. Muallif o‘quvchiga tayyor javob bermaydi, balki uni mustaqil xulosa chiqarishga majbur qiladi. Shu sababli Schlinkdagi logos ko‘proq ochiq va muammoli xarakterga ega.

Mazkur uch komponentning o‘zaro munosabati ham asarlar o‘rtasidagi muhim farqni ko‘rsatadi. Cho‘lponda ethos va pathos ustunlik qilib, logos ularni mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu esa persuziyaning kommunikativ va ijtimoiy yo‘naltirilgan modelini shakllantiradi. Schlinkda esa logos va pathos o‘zaro uyg‘unlashib, ethosni hosil qiladi, ya’ni qahramonning ishonchliligi uning ichki mantiqiy va hissiy kurashi orqali yuzaga keladi.

Shuningdek, har ikki asarda ritorik savollar muhim persuziv vosita sifatida xizmat qiladi, biroq ularning funksiyasi farqlidir. Cho‘lponda ritorik savollar ko‘proq ta’kid va uqtirish vazifasini bajarib, o‘quvchini muallif nuqtai nazarini qabul qilishga undaydi. Schlinkda esa ular refleksiya va ikkilanishni kuchaytirib, o‘quvchini muammoga jalb qiladi. Bu esa persuziyaning ikki xil modelini — direktiv va reflektiv shakllarini ajratish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ethos–pathos–logos modeli asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Kecha va kunduz romanida persuziya ko‘proq tashqi, ijtimoiy va kommunikativ xarakterga ega bo‘lsa, Der Vorleser asarida u ichki, psixologik va reflektiv

xarakter kasb etadi. Bu esa milliy-madaniy tafakkur, tarixiy tajriba va adabiy an'analar persuziv strategiyalar tanlovida hal qiluvchi rol o'ynashini yana bir bor tasdiqlaydi.

Komponent	Kecha va kunduz (Abdulhamid Cho'lpon)	Der Vorleser (Bernhard Schlink)
Ethos (ishonchlilik)	Kollektiv tajriba asosida quriladi: maqollar, Individual tajriba va ichki aforizmlar, an'anaviy nutq formulalari halollikka asoslanadi. orqali muallif fikri "xalq donishmandligi" Qahramonning o'zini tahlil qilishi, bilan mustahkamlanadi. Personajlar nutqi aybini tan olishi uning orqali ijtimoiy va axloqiy normalar ishonchliligini oshiradi. Ethos ichki ifodalanadi.	Ichki kechinmalar orqali beriladi: aybdorlik hissi, sukut, psixologik iztirob. Ritorik savollar orqali o'quvchi qahramon bilan birga his qiladi. Emotsiya indirekt, ichki tarzda beriladi.
Pathos (hissiy ta'sir)	Ochiq emotsional vositalar ustun: undov gaplar, erkalash so'zlari, tahdid, qarg'ish, ovoz va intonatsiya orqali bevosita hissiy bosim yaratiladi. O'quvchi tezkor reaksiyaga undaladi.	Savol-javob, ichki monolog va moral dilemmalar orqali shakllanadi. Muallif tayyor javob bermaydi, o'quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.
Logos (mantiqiy asoslash)	Maqollar, umumlashmalar va sabab-oqibat bog'lanishlari orqali fikr tayyor xulosa sifatida beriladi. O'quvchi muallif pozitsiyasini qabul qilishga yo'naltiriladi.	Refleksiya va ikkilanish vositasi: o'quvchini muammoga jalb qiladi, fikrlashga majbur qiladi.
Ritorik savollar funksiyasi	Ta'kidlash va uqtirish vositasi: o'quvchini muallif fikriga ishontirishga xizmat qiladi.	Ichki, psixologik va reflektiv persuziya (bilvosita ta'sir).
Persuziaviy turi	Tashqi, kommunikativ va ijtimoiy yo'naltirilgan persuziaviy (bevosita ta'sir).	Ichki monolog, metafora, savollar zanjiri, psixologik tasvir, sukut, sintaktik parallelizm.
Asosiy vositalar	Maqollar, takrorlar, buyruq mayli, undov gaplar, dialoglar, xalqona birliklar.	Ishontirish → qabul qildirish → ijtimoiy norma bilan moslashtirish
O'quvchiga ta'sir mexanizmi		Savol qo'yish → ikkilanish → mustaqil xulosa chiqarish

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, Abdulhamid Cho'lpon asarida persuziv strategiyalar ko'proq tashqi kommunikativ ta'sirga asoslangan bo'lsa, Bernhard Schlink romanida ular ichki psixologik refleksiya orqali amalga oshadi. Bu esa milliy-madaniy tafakkur va adabiy an'analar ethos, pathos va logos komponentlarining nisbatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1. Куронов Дилмурод. Чўлпон насри поэтикаси/Масъул мух. О.Шарафиддинов, У.Норматов. – Т.: «Шарқ», 2004. –288 б.
2. Abdulhamid Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт, 1987.
3. Roman Jakobson. *Selected Writings*. – The Hague: Mouton, 1981.
4. Morris Halle & Noam Chomsky. *The Sound Pattern of English*. – New York: Harper & Row, 1968.

